



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

JIZZAX VILOYATIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Norbo‘tayeva Maxbuba Saitqul qizi

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: makhbuba_norbutaeva@mail.ru

Annotatsiya: Jizzax viloyatida agroturizmning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, viloyatda agroturizmning bugungi holati, uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishda xorij tajribasini o‘rganish hamda viloyat agroturistik salohiyatini yanada oshirishda ularni qo‘llash.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, landshaft, agroturizm, innovatsiya, ASM, yer resurslari, intensiv, ekstensiv, investitsiya.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF AGROTURISM IN JIZAKH REGION

Norbutayeva Makhbuba

Annotation: To identify the factors influencing the formation and development of agritourism in Jizzakh region, the current state of agritourism in the region, the existing problems in its development and study of foreign experience in overcoming them and their application in further enhancing the agro-tourism potential of the region.

Keywords: economy, agriculture, landscape, agritourism, innovation, ASM, land resources, intensive, extensive, investment

Hozirgi davrning muhim masalasi iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining turmush tarzini yaxshilashdir. Respublikamiz aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Shuning uchun mehnat resurslariga boy hisoblangan qishloq joylarida yangi ish o‘rinlarini ochish, aholini farovon yashashida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda jahondagi agroturizmi rivojlangan mamlakatlarda bu tarmoq yuqori daromad keltiruvchi biznes ko‘rinishlaridan biriga aylanib ulgurgan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda. Turizmning ushbu tarkibiy qismi respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun yetarlicha resurslarga ega.

Mamlakatimizda turizm sohasini strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, sayyohlarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari, sayyohlarni o'z jozibasi bilan o'ziga chorlovchi hududiy brendlar bilan tanishtirish, uning asosi sifatida viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyozlar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini beradi. Ammo, o'tkazilgan dastlabki tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, dunyo ahlining mamlakatimiz tabiatining o'ziga xos go'zalligi, ko'plab hududlarda turistik obyektlar mavjudligi to'g'risida, yurtimiz turistik va rekreatsion resurslarining bor imkoniyatlarini ifodalovchi hududiy brendlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligini ko'rsatmoqda [Muhitdinov A.B. Soatov. Sh.A. Igamberdiyev D.X, 2021].

Mazkur sohani rivojlantirish uchun 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 13-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-son, 2019-yil 5-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son farmonlari qabul qilingan bo'lib, ularga ko'ra turizm turlari, shakllari va ularning institutsional asoslari berilgan bo'lsa, ba'zi manbalarda turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari va uning institutsional asoslari, shuningdek, hududlar kesimida turistik qishloq zonalarini yaratish yuzasidan [Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B, 2020] taklif va tavsiyalar keltirilgan. Mazkur institutsional asoslarga ko'ra, 2019-yil 1-noyabrdan boshlab eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari) ro'yxatini shakllantirish, ushbu fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari tashkil etilganda va turistlar uchun kamida besh xil xizmat turlari (yashash va yoki ovqatlanish bo'yicha xizmatlardan tashqari) ko'rsatilgan taqdirda ularga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomini berish, 2020-yildan boshlab "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomi berilgan fuqarolar yig'inlari "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlariga birinchi navbatda kiritilishi qat'iy belgilab qo'yilgan [2019-yil 13-avgustdagi PF5781-son Farmoni]. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da

amalga oshirishga oid Davlat dasturida namunali fermer xo‘jaliklarini sayyohlarga xizmat ko‘rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda xorijliklarning mamlakatimizda bo‘lish muddatlarini uzaytirish maqsadida agroturizmni rivojlantirishga doir vazifalar belgilangan. Albatta bu kabi ishlar mamlakatimizda turizm tarmoqlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Ushbu dastur doirasida mamlakatimizning ko‘plab hududlarida, xususan, Jizzax viloyatida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jizzax viloyati agroturizmni rivojlantirish uchun qulay hududdir. Jizzax viloyati hali hamon milliy iqtisodiyotimizda o‘zining ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng so‘nggi o‘rinlarda kelmoqda. Ayrim tarmoqlarning rivojlanishida faqatgina Sirdaryo viloyatidan avvalda turadi, xolos. Bunga asosiy sabab viloyatning mavjud resurslaridan to‘g‘ri foydalanmaslik yoki umuman foydalanmaslikdir. Jizzax viloyatining iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda, viloyatning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini yetakchilar qatoriga olib chiqishda, avvalo, undagi mavjud xilma-xil resurslardan to‘g‘ri, samarali, qisqa qilib aytganda optimal darajada foydalanish bugungi kunda zaruriy shart desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Jizzax viloyat qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 38,4 foizi ekin maydonlari bilan, 59,8 foizi pichanzor va yaylovlar bilan band. Pichanzor va yaylovlar Baxmal, Zomin, Forish, Yangiobod kabi tog‘ va tog‘ oldi hududlarda joylashgan qishloq tumanlarida, ekin ekiladigan yerlar esa pasttekislik hududlarda (Arnasoy, Do‘stlik, Paxtakor, Zarbdor va boshqalar) ko‘p. Fermer xo‘jaliklariga birlashtirilgan yer maydoni 475 ming ga, ularda ishlaydiganlar 61,3 ming kishi, har bir fermer xo‘jaligiga o‘rtacha 11,2 gektardan yer to‘g‘ri keladi. Vaholanki, bu ko‘rsatkich Farg‘ona vodiysi viloyatlari hamda Xorazm viloyatida juda past. Viloyatda qishloq xo‘jaligini agroturizm ko‘rinishida rivojlantirish uchun yetarlicha asos, yetarlicha iqlimiy va yer resurslari bor, ammo suv resurslari borasida ko‘plab yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini viloyat miqyosida eng ko‘p miqdorda yetishtirib beruvchi Baxmal, G‘allaorol, Sharof Rashidov va Zomin tumanlari ham boshqa qator tumanlar singari ichimlik suvi muammosiga duch kelmoqda. Ayni vaqtda viloyatning milliy iqtisodiyot rivojiga qo‘shayotgan hissasini oshirishda, viloyat aholisining turmush tarzini yaxshilashda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda qishloq xo‘jaligini agroturizm bilan hamohanglikda rivojlantirish viloyat uchun kam xarajatlar evaziga ko‘p daromad keltiruvchi eng samarali va shu bilan birgalikda eng zaruriy shart hisoblanadi. Mavjud holatni viloyatning SWOT tahlilidan ham ko‘rishimiz mumkin (1-sxema).

KUCHLI JIHATLARI	ZAIF TOMONLARI
<ul style="list-style-type: none"> • qulay iqtisodiy geografik o‘rin; • mehnat resurslarining ko‘pligi; • infratuzilma hamda qurilish ba’zasining mavjudligi; • elektr energiya manbaining yaqinligi; • qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning ko‘pligi; • baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish imkoniyatning mavjudligi; • ikkita qudratli viloyat o‘rtasidagi o‘ziga xos “vakuum”. 	<ul style="list-style-type: none"> • qazilma resurslarining ozligi; • iqtisodiy “zanjirining” to‘liqsizligi; • qayta ishlash sanoatining rivojlanmaganligi; • toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanish darajasining pastligi; • qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning sho‘rlanishga moyilligi; • qishloq xo‘jaligining ekstensiv yo‘l bilan yuritilishi.

Shuningdek, quyida viloyatda agroturizmni rivojlantirishning ijobiy natijalari keltirilgan:

1. Qishloq turizmi mehnat resurslarini qo‘shimcha, yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlashda katta imkoniyatlarni yaratadi;
2. Tabiat va tabiiy resurslardan foydalanishning yangi texnologiyalarini jalb qiladi;
3. Qishloq turizmi ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishni ta‘minlaydi;
4. Qishloq turizmi tabiat muhofazasida investitsiyalar kirishini axborotlaydi va qishloqda xizmatlar servisini takomillashtiradi;
5. Qishloq turizmi qishloqlarda mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy darajasini o‘stiradi;
6. Qishloq turizmi mahalliy mahsulotlar, hunarmandchilikka keng yo‘l ochadi;
7. Qishloq turizmi tabiatni muhofaza qiluvchi mahalliy boshqaruvni rivojlantiradi va ma‘naviy, moddiy jihatlar bo‘yicha rag‘batlantiradi;
8. Qishloq turizmi xalqlar o‘rtasida hamdo‘stlik aloqalarini yuzaga keltiradi;
9. Qishloq turizmi turistik resurslarni muhofaza qiladi, ta‘mirlaydi va obodonlashtiradi;
10. Qishloq turizmi insonlarni ruhiy, jismoniy jihatdan dam oldiradi;
11. Qishloq turizmi dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikni o‘rgatadi, bu sohalarning mahsulotlaridan manfaatdor bo‘lishni ta‘minlaydi.

Albatta yuqorida ko‘rsatilgan samaradorlikka erishish uchun Jizzax viloyatining agroturistik salohiyatini, agroturistik resurslarini tadqiq va tahlil qilish, viloyatda agroturizmni rivojlantirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, hududning mavjud agroturistik salohiyatini jahon ommasiga namoyish etishning samarali

usullarini ishlab chiqish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabi tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Xulosa o‘rnida, Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin va Forish tumanlarida agroturizmni rivojlantirish uchun yetarlicha yer va iqlimiy resurslar mavjudligini yana bir bor ta’kidlash o‘rinli. Shunchaki, hududda intensiv qishloq xo‘jaligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, viloyat hokimligi tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligini intensiv yo‘l bilan rivojlantirishga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqish va bu dastur doirasida dunyoning agroturizmi rivojlangan qator davlatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qo‘shni Qozog‘iston va Qirg‘iziston mamlakatlari bilan sohaga oid yangiliklar almashish va eng asosiysi jannatmakon yurtimizning bor ko‘rk-u salobatini, salohiyatini, turistik va rekreatsion resurslarini to‘laqonli darajada namoyish eta oladigan axborot tizimini yaratish kabi ishlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmonlari.
2. Дурович А.П. Реклама в туризме. – Москва. Новое знание, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va Axborot Milliy Agentligi - www.uza.uz
4. Internet manbalari: O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal - www.gov.uz
5. www.cyberleninka.ru
6. www.lex.uz
7. www.geografiya.uz
8. www.world-tourism.org
9. www.oriens.uz
10. www.advantour.com
11. www.tours.ru